ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Резюме: В статье анализируется история перевода романа Джеймса Джойса «Улисс» на узбекский язык, выделяя ключевые этапы и трудности передачи модернистского стиля и литературных аллюзий. Отмечается вклад таких переводчиков, как Ибрагим Гафуров, и значимость узбекского перевода для культурного диалога региона.

Resume: The article analyzes the history of translating James Joyce's novel «Ulysses» into Uzbek, highlighting key stages and challenges of rendering the modernist style and numerous literary allusions. Special attention is given to contributions by translators and critics such as Ibrahim Gafurov and the complete translations by Khinkis and Khoruzhy. The significance of the Uzbek translation for cultural dialogue and literary development in the region is emphasized.

Резюме: Maqolada Jeyms Joysning «Uliss» romanining o'zbek tiliga tarjima qilinishi tarixi va o'zbekchaga moslashtirishning asosiy bosqichlari hamda zamonaviy uslub va ko'plab adabiy ishoralarni milliy tilda yetkazishdagi qiyinchiliklarni tahlil qiladi. Ibrohim G'ofurov kabi tarjimon va tanqidchilarning hissasi hamda Xinkis va Xorujiy tomonidan tayyorlangan to'liq tarjimalarga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekcha tarjimaning mintaqada madaniy muloqot va adabiy taraqqiyotdagi ahamiyati ta'kidlanadi.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA IJTIMOIY IZTIROB VA RUHIY YOLG'IZLIK

Umarov Boboqand Ikromovich,
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek adabiyoti inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ichki ziddiyatlarni chuqur poetik shaklda aks ettira boshladi. Bu davrda yozilgan she'rlar ko'pincha ochiq ijtimoiy mavzulardan emas, ichki iztirob, ruhiy yolg'izlik, sukut, xotira orqali jamiyatdagi holatni ifoda etadi. Ana shunday yo'nalishning yetuk vakillaridan biri – Xurshid Davrondir.

Shoirning «Shahardagi olma daraxti» va «Tungi bog'lar»[1] to'plamlari o'zbek poeziyasida shahar madaniyati va insonning ichki bo'shlig'ini ijtimoiy-falsafiy darajada tasvirlagan ilk namunalar sirasiga kiradi. U inson va tabiat, muhabbat va san'at, xotira va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatni ramzlar, badiiy tafakkur va sukunat orqali ochib beradi. Ushbu maqolaning maqsadi – Xurshid Davron she'riyatida ijtimoiy iztirob, ruhiy yolg'izlik va ma'naviy sovuqlik motivlarini tahlil qilish, ularni o'z davri 1970-1980-yillar Sovet jamiyatining ruhiy manzarasi bilan bog'liq holda yoritishdir.

Bu davr – tashqi jihatdan osoyishta, ammo ichki ma'noda inqirozli yillar edi. Sovet jamiyatida «baxtli hayot» mafkurasi targ'ib etilar, lekin odamlar ongida bo'shliq, begonalik, sukunat, ishonch inqirozi kuchaygan edi. Shu ijtimoiy muhit shoir ijodida ruhiy iztirob va yolg'izlik poetik tizimini shakllantirdi.

[1] Хуршид Даврон. Шаҳардагӣ олма дарахти. Т.: Ёш гвардия, 1980.; Хуршид Даврон. Тунги боғлар. Т.: Ёш гвардия, 1981.

«Shahardagi olma daraxti»dagi shahar – bu faqat geografik joy emas, inson ruhining bezovta makonidir. Shahar – jim, lekin yuraklar qichqirayotgan, sukunat ichida azob kechayotgan joy. Shoirning «Eshiklar to‘satdan bir quchoq nurni...» she’rida bu holat quyidagicha ifodalanadi: «Eshiklar to‘satdan bir quchoq nurni Sochib yuboradi tunning ko‘ksiga... Keyin dalalarga chiqib ketaman, Men bilan bog‘larda tentiraydi tun». Bu satrlarda «eshik», «nur», «tun» obrazlari shunchaki manzara emas – ular insonning ichki holatini ifodalaydi. Eshik – jamiyat va shaxs o‘rtasidagi chegara; nur – ozodlik istagi; tun esa – sukunat va iztirobning ramzidir. Shoir «tungi yurish» orqali jamiyatning ichki zulmatidan tabiat yorug‘ligiga chiqishga intiladi.

«Xurshidning shoirona nazarida ham, tashbehlarida, she’rining vaznida ham behalovat kechinmalar ruhi va to‘lqini sezilib turadi. Uning satrlarida yoshlikka xos otash bor, tug‘yon bor. Xurshidning tasvir uslubida ham o‘ziga xoslikni ko‘rish mumkin»[1]. Bu to‘plam Xurshid Davronning eng «shaharlashgan», ammo eng «yolg‘iz» she’rlar to‘plamidir. Undagi ko‘plab qahramonlar – shoirlar, aktyorlar, rassomlar – barchasi san’at orqali jamiyatni tushunishga urinadi, biroq natijada o‘zlarini yo‘qotadi.

Masalan, «Rassom Shuhrat Abdurashidovga» she’rida san’atkorning ruhiy holati ijtimoiy inersiyaning ramziga aylanadi: «Biz shunday yashaymiz! Sevib may, chog‘ir, Qonunu rasmga telba-teskari. Biz ming kutishga rozimiz, axir, Daraxt shoxlarida bargdek o‘sgani…». Bu satrlarda «biz» – butun bir avlod, san’atkorlar, ijodkorlar timsolidir. Ular jamiyatning qonun-qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan, biroq yurakda yashovchi ozodlikni ifoda etadilar. Shoir san’atni jamiyatga qarshi qo‘ymaydi, lekin uni ruhiy qutulish yo‘li sifatida talqin etadi.

Shuningdek, «Sahna uzra porladi chiroq» she’rida teatr aktyorining «o‘lmoq shart» sahnasi hayotning metaforasiga aylanadi: «Yana Motsart va yana o‘lim Takrorlanar, o‘nmi, o‘n uchmi. Aktyor faqat sezar vujudda soviyotgan qo‘llarin uchin».

Bu tasvirda sahna – jamiyat, aktyor – inson, rejissyor – tuzum. Shoir jamiyatning insonga buyruq beruvchi mexanizmini ko‘rsatadi. «O‘lmoq shart» – bu siyosiy ham, ma’naviy ham metafora: insoniylikni saqlab qolish uchun «sahnadan chiqish» kerak. Bu she’r butun to‘plamning falsafiy cho‘qqisidir. Unda shoir bir do‘stining uyiga kiradi, ammo u yerda inson emas, «Van Gogning qulog‘i mixlangan» bir manzara uni kutib oladi.

«Van Gogning qulog‘i mixlangan edi
Va unda bamisli ilgakli dorga
Osilib yotardi avto kaliti...»[2]

Bu «quloq» – sezish, eshitish, insoniy aloqa ramzi. Uning mixlanishi – jamiyatda insonlar bir-birini eshitmay qo‘yganini bildiradi. «Avto kalit» esa qulaylik, texnika, zamonaviylik timsoli – lekin bu texnik taraqqiyot insoniylikni yo‘qotgan. She’r yakunida shoir «qutqaraman seni, go‘zal qo‘g‘irchoq» deydi – bu insoniylikni, mehrni, bolalikni qutqarish istagidir. Shunday qilib, she’r jamiyatdagi hissiy falajlikni ochib beradi.

«So‘nggi xat»da yo‘qotish va xotira mavzusi shaxsiy darajada ifodalanadi. Maktub – aloqa vositasi, ammo endi bu aloqa uzilgan:

«Maktubing shu qadar qisqaki,
Og‘riqning azobi uzunroq…»

Bu satrda sukunat og‘riqdan uzunroqdir – ya’ni, so‘z aytilmagan joyda iztirob davom etadi. Bu nafaqat muhabbat, balki jamiyatdagi so‘zsiz holatning timsoli hamdir.

«Qiz va shamol haqida ertak» esa ijtimoiy kechinmani tabiat orqali ifodalaydi. Shamol – ozodlik va yurakning timsoli, lekin «qayrag‘ochga ko‘ksini bosib yig‘laydi shamol» – ozodlik ham jamiyat devorlariga uriladi. Shoir ozodlikni his qiladi, ammo uni ifoda etishdan tiyiladi – bu davr senzurasining ramziy aksidir.

«Mirtemir xotirasiga»[3] she’rida esa shoir ustoziga murojaat qilib, uning o‘limini milliy ruhiyatdagi yo‘qotish sifatida keltiradi. «Qor uzra yog‘ilardi muz nafasini...» – bu sovuq manzara, jamiyatning hissiy sovuqligini bildiradi. Shoir uchun ustozning o‘limi – davrning vijdonini yo‘qotishdir.

«Tungi bog‘lar» to‘plami – shoir tafakkurining falsafiy yetilish bosqichi. Unda iztirob endi hayqiriq emas, sukunatga aylanadi. «Eng kuchli baqiriq – soqovning baqirig‘i» degan satr butun to‘plamning markaziy g‘oyasidir. Shoir uchun jimlik – bu jamiyatning ichki faryodi. «Shoir jim yursa» degan ogohlantirish – ijodkor jim qolsa, haqiqat yo‘qoladi, degan falsafiy signal. «Bolalik haqida she’r»da esa inson ruhining sof manbalari haqida so‘z boradi:

Hali unutganimcha yo‘q daraxtlarning tilini,
...Bugun esa onamning oppoq sochlariga boqib qo‘rqaman…

Bu satrlar ijtimoiy o‘zgarishlar fonida insonning tabiiy hislarini yo‘qotayotganini ko‘rsatadi. «Bolalik» – bu jamiyatda yo‘qolgan insoniylik ramzidir. «Daraxt» she’rida esa shoirning falsafasi mujassam: daraxt insonni, inson esa daraxtni davom ettiradi. «U o‘zini olovga berar, odamlarga berar olovni.»

[1] https://t.me/xurshiddavronkutubxonasi/7120
[2] https://kh-davron.uz/ijod/kitoblar/kamola-botirova-poetik-obrazlar-jilosi.html
[3] https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/mirtemir-domla-xotirasiga-bagishlov.html

Bu satrlar ijtimoiy xizmat va inson fidoyiligining metaforasidir – inson yonadi, lekin boshqalarni isitadi.

Shamol - ruhiy ozodlik, jamiyat chegaralarini buzuvchi kuch. Deraza, eshik - jamiyat va shaxs o‘rtasidagi psixologik to‘siq. Olma daraxti - hayot, samimiyat, ichki uyg‘unlik ramzi. Shahar - begonalik, sukunat, modernlikning sovuq manzarasi. Qush - so‘z, erkinlik, shoirlik iste’dodi. Tun - iztirob, jimlik, ichki kechinma makoni.

Bu obrazlar tizimi orqali shoir ijtimoiy haqiqatni metaforik shaklda ifodalaydi. Xurshid Davron she’riyati ochiq shiorlar emas, ruhiy metaforalar orqali ijtimoiy muammolarni anglash poetikasidir.

Xurshid Davron she’riyatida «sukunat» ijtimoiy kategoriyaga aylanadi. Bu jimlik – qo‘rquv emas, balki tushunishning chuqur shakli. Shoir ovoz ko‘tarmaydi, u jim turib yurak og‘rig‘ini ko‘rsatadi.

Bu jihatdan u Usmon Azim va Shavkat Rahmon singari zamondoshlari bilan uyg‘un, ammo Xurshid Davronning farqi – u sukunatni falsafiy kategoriya sifatida quradi. «Eng kuchli sukunat – shoir jim yursa» degan satr, aslida, san’atning ijtimoiy mas’uliyatini bildiradi. Shoir ochiq tanqidni emas, ruhiy refleksiyani tanlagan. Bu usul orqali u senzura sharoitida ham haqiqatni yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. U shoirni «sokin isyonchi», «jim vijdon» sifatida ko‘radi.

Shoirning «Haqiqat» she’rida: «Qancha o‘ramasin ko‘ngli qoralar baland devor bilan yozning bog‘ini, bari bir bag‘ri keng, saxiy olmalar ko‘chaga uzatar shig‘il shoxini.» Bu satrlar ijtimoiy optimizmning ramzidir – devorlar ko‘p bo‘lishi mumkin, ammo hayot (olma daraxti) baribir xalqka (ko‘chaga) meva beradi. Bu shoirning umid falsafasi.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Davronning «Shahardagi olma daraxti» va «Tungi bog‘lar» to‘plamlarida insonning jamiyatdagi yolg‘izligi va iztirobi ijtimoiy-falsafiy darajada ifodalangan. U sukunatni jimlik emas, balki ruhiy faryod deb biladi. Shoirning shahar manzaralari, deraza, shamol, daraxt obrazlari inson va jamiyat o‘rtasidagi sovuqlikni ifodalaydi. Shu tariqa, Xurshid Davron o‘zbek adabiyotida «sukunat falsafasi»ni yaratib, ijtimoiy og‘riqni ichki monolog orqali ifodalagan yangi badiiy yo‘nalishni boshlab bergan. Xurshid Davron ijtimoiy mavzuni shiorlar emas, ruhiy refleksiya orqali anglatgan; «sukunat»ni falsafiy kategoriya darajasiga ko‘targan.

Xurshid Davronning «Shardagi olma daraxti» va «Tungi bog‘lar» to‘plamlari o‘zbek adabiyotida insonning ruhiy yolg‘izligi va ijtimoiy iztirobini estetik darajada ifodalagan noyob asarlardir. U jamiyatni bevosita tanqid qilmaydi; u insonni ko‘rsatadi, inson orqali jamiyatni anglatadi. U so‘z orqali emas, jimlik, tabiat, shamol, daraxt, olma orqali ijtimoiy haqiqatni ifodalaydi. Xurshid Davron she’riyatidagi ijtimoiy og‘riq – bu qichqiriq emas, sokin yig‘idir. U o‘zbek poeziyasini ichki falsafaga, ruhiy chuqurlikka olib kirdi. Shu bois, uning ijodi bugun ham insoniylik, ijtimoiy mas’uliyat va ruhiy uyg‘onish darsidir.

Резюме. В статье анализируются мотивы социальных страданий, одиночества, безмолвия и духовного кризиса в поэзии Хуршида Даврона. На основе сборников «Яблоня в городе» и «Ночные сады» исследуется стиль метафорического выражения поэтом противоречия между человеком и обществом. В исследовании духовное одиночество в таких стихотворениях поэта, как «Рассказ о потерянном друге,» «Последнее письмо,» «Сказка о девушке и ветре,» «Самый сильный крик,» анализируется как поэтическая система. В условиях социальной инерции советского периода поэт символически выражал социальную критику через пустоту человеческого духа, эмоциональный холод и безмолвие.

Rezyume. This article analyzes the motifs of social suffering, solitude, and silence in Khurshid Davron’s poetry, particularly in his collections «Shahardaghi Olma Daraxti» and «Tungi Bog‘lar». The study explores how the poet reflects the alienation of the individual in a controlled society through metaphorical imagery and psychological depth. By examining poems such as «The Story of My Lost Friend», «The Last Letter», and «The Strongest Cry», the research reveals Davron’s concept of silence as a form of protest and introspection. His poetry transforms emotional loneliness into a universal social diagnosis. To interpret loneliness and silence as social and philosophical categories in the poet’s works.